

### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



2022 yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi miqdori  
(dastlabki ma‘lumot)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko‘rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2022 yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 833,5 ming so‘mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud) tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 % oshdi.

**Tarmoqlar kesimida o‘rtacha oylik ish haqi**  
(2022 yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
<b>Jizzax viloyati bo‘yicha – jami</b>	<b>2 833,5</b>
<i>shu jumladan:</i>	
Sanoat	2 972,9
Qurilish	2 110,1
Savdo	3 274,3
Tashish va saqlash	3 431,4
Yashash va ovqatlanish	2 367,1
Axborot va aloqa	4 521,4
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	8 148,7
Ta‘lim	2 414,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2 411,5
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	3 433,0
Boshqa faoliyat turlari	3 471,5



Sohalar kesimida o'rtacha oylik ish haqi miqdori va o'sish sur'ati  
(2022 yil yanvar-sentabr)



Ish haqi miqdori ming so'm — O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Tashish va saqlash sohasida (191,4 %), Moliya va sug'urta faoliyati (131,2 %), Axborot va aloqa faoliyati (127,8 %) va Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (126,9 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'lmoqda.



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilot xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi**  
(2022 yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik:</i>	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
<b>Jizzax viloyati bo'yicha – jami</b>	<b>2351</b>	<b>105 822</b>	<b>2 698 635,5</b>	<b>2 833,5</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	33	14 797	408 304,2	2 972,9
Qurilish	8	402	7 695,1	2 110,1
Savdo	9	783	24 276,5	3 274,3
Tashish va saqlash	6	1 499	46 388,5	3 431,4
Yashash va ovqatlanish	3	17	362,2	2 367,1
Axborot va aloqa	18	503	22 935,6	4 521,4
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	20	1 870	142 585,9	8 148,7
Ta'lim	991	49 710	1 098 642,1	2 414,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	78	19 697	429 641,1	2 411,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	82	896	27 750,7	3 433,0
Boshqa faoliyat turlari	1 103	15 648	490 053,6	3 471,5

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Moliya va sug'urta faoliyati 8 148,7 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 287,6 %), Axborot va aloqa faoliyati 4 521,4 ming so'mni (159,6 %) va San'at, ko'ngil ochish va dam olish 3 433,0 ming so'mni (121,2 %) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'lmoqda.



**Sanoat sohasi** bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod – 209,9 foiz, Zarbdor – 120,8 foiz, Paxtakor – 120,3 foiz va Forish – 102,8 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Jizzax sh. – 99,0 foiz, Zomin – 81,9 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Qurilish sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l – 139,0 foiz va Jizzax shahri – 101,9 foiz viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi G'allaorol- 99,9 foiz va Zomin tumani – 88,2 foiz kuzatildi



**Savdo sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida – 159,1 foiz viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Jizzax shahri – 89,8 foiz va Sharof Rashidov – 46,1 foiz tumanida kuzatildi.



**Ta'lim** sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahrida – 128,8 foiz, Baxmal – 104,9 foiz, Zomin – 100,9 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Do'stlik – 98,8 foiz, Zarbdor – 98,6 foiz, hamda Arnasoy – 94,6 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Zomin – 114,7 foiz, Jizzax shahri – 109,5 foiz, Baxmal – 105,0 foiz, Paxtakor – 103,9 foiz va Do'stlik – 103,2 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Sharof Rashidov – 93,7 foiz, Zafarobod – 93,6 foiz, Forish – 84,8 foiz, Zarbdor – 84,6 foiz tumanlarida kuzatildi



**Bank, sug'urta va vositachilik** faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 101,7 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod – 65,2 foiz, Do'stlik – 40,1 foiz tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022 yil yanvar-sentabr, ming so'mda)

O'rtacha oylik ish	2021 yil yanvar-sentabr	2022 yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %
<b>Jizzax viloyatida</b>	<b>2 345,6</b>	<b>2 833,5</b>	<b>120,8</b>
Jizzax shahri	3 033,7	3 599,8	118,7
tumanlar:			
Arnasoy	1 944,7	2 406,6	123,7
Baxmal	2 182,8	2 640,6	121,0
G'allaorol	1 713,1	2 250,7	131,4
Sharof Rashidov	1 922,4	2 308,3	120,1
Do'stlik	2 049,7	2 341,5	114,2
Zomin	2 157,2	2 586,4	119,9
Zarbdor	2 048,9	2 571,8	125,5
Zafarobod	2 272,3	2 863,3	126,0
Mirzacho'l	1 994,0	2 413,5	121,0
Paxtakor	2 046,7	2 553,8	124,8
Forish	1 898,9	2 232,6	117,6
Yangiobod	1 973,2	2 201,3	111,6

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 3 599,8 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (127,0 %), Zafarobod tumanida 2 863,3 ming so'mni(101,1 %) ni tashkil etgan bo'lsa Baxmal tumanida 2 640,6 ming so'mni (93,2 %), va Zomin tumanida 2 586,4 ming so'mni (91,3 %) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi**

(2022 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 127,0 foiz va Zafarobod tumanida 101,1 foiz, Baxmal tumanida 93,2 foizni tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2022 yil iyun oyidan 920,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.*



**JIZZAX VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2022 YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas'ul:  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

tel.: 0(372) 221-53-51

Buyurtma raqami № 27.10.2022 yil Tiraj 15 nusxa

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)  
elektron pochta manzili: [info@jizzaxstat.uz](mailto:info@jizzaxstat.uz)  
elektron himoyalangan pochta manzili: [jiz.stat@exat.uz](mailto:jiz.stat@exat.uz)